

## **O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA DAVLATLARI HAMKORLIGI TARIXIGA OID MULOHAZALAR.**

**Abdusattorova Farangiza Akramjon qizi**

TDSHI Koreyashunoslik fakulteti,  
Koreya tarixi vamadaniyati kafedrası

II kurs magistranti  
Tel: +998970029032  
farangiza11@mail.ru

**Shamsiyeva I.M.**

Ilmiy rahbar: t.f.n.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8430169>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi o'rtasida o'rnatilgan diplomatik munosabatlar va hamkorlikda olib borilayotgan ishlari, ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi sohalar haqida yozilgan. Shuningdek, 2017-yildan boshlab Koreya va O'zbekiston Respublikasi aloqalarining yangi bosqichga ko'tarilishi haqida so'z yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, Janubiy Koreya, I.A. Karimov, SH.M. Mirziyoyev, Kim Yon Sam, Mun Je In.

**Kirish.** Osiyo mintaqasi davlatlarida ichida O'zbekiston va Janubiy Koreya munosabatlari bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu nafaqat O'zbekiston Respublikasi, balki, Janubiy Koreyalik hamkorlar tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Aytib o'tish joizki, "Hozirgi vaqtda Koreya va O'zbekistonning hamkorlik aloqalari kengayib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi manfaatli iqtisodiy aloqalar har tomonlama foydalidir: O'zbekiston ishchi kuchi va resurslarga boy mamlakat, Koreya esa ishlab chiqarish texnologiyalari va qisqa davrda tez sur'atlar bilan rivojlanish tajribasiga ega" dir.<sup>1</sup>

Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch mintaqasi davlatlari orasida birinchi bo'lib 1991-yil 30-dekabrda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini tan oldi. Shunday keyin O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlari o'rtasida 1992-yil yanvar oyida diplomatik musobatlar o'rnatildi va hozirgacha barcha sohalarda keng hamkorlik aloqalari olib borilmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda hukumat rahbarlarining davlat tashriflari muhim o'rin tutadi. Xususan, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Seulga qilgan rasmiy tashrifidan so'ng ikki davlat o'rtasida o'zaro hamkorlikka asos solindi. Dastlabki tashrifdanoq "O'zbekiston va Janubiy Koreya

<sup>1</sup> Li Dji Yun. Koreya va O'zbekistonning iqtisodiy hamkorlik shartnomasi.//Jamiyat va boshqaruv, 2009. №1. 23-b



o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik asoslari to'g'risida" shartnoma imzolandi.<sup>2</sup> Ushbu shartnoma orqali ikki mamlakat o'rtasida turli sohalarda (savdo, madaniyat, ta'lim, OAV, turizm va sport) uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlikka kelishib olindi.

1994-yilda esa Koreya Respublikasi Prezidenti Kim Yon Samning O'zbekistonga tashrifi bo'lib o'tdi. Ushbu tashrif davomida Buxoro shahrida "Goldstar" firmasi bilan hamkorlikda eng so'nggi rusumdagi televizorlarni yig'ish zavodining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, to'qimachilik sanoati va farmasevtika sohaslarida faoliyat yurituvchi qo'shma korxonalar ishga tushdi. 1993-yili ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmining 83 million AQSH dollarni tashkil etishi, 1994-yilda ushbu ko'rsatkichning 2,5 barovar o'sib, 200 million AQSH dollariga teng bo'lishi, 1995-yilga kelib esa 200 million AQSH dollaridan ham oshib ketishi o'zaro hamkorlikning natijasi bo'ldi<sup>3</sup>.

Ma'lumki, Koreya va O'zbekiston Respublikalarining birgalikdagi eng yirik loyihasi bu-O'zDEU avto qo'shma korxonasidir. Ushbu korxonada 1995-yil 25-martdan Andijon viloyatining Asaka shahrida avtomobil ishlab chiqara boshladi. 1999-yil 4-6-oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Seulga qilgan rasmiy tashrifi doirasida qo'shma kompaniyalar sonini yanada ko'paytirish, Koreya ishbilarmonlariga imkon qadar imtiyozlar yaratib berish xususida kelishib olindi. Xususan, Koreyaning "Ay Di Em" to'qimachilik korxonasi bilan birgalikda qo'shma korxonada ochishga qaror qilindi. Shuningdek, mazkur tashrif Koreyadagi bir qancha vazirlik va tadbirkorlar bilan uchrashdilar. 2001-yil 23-avgustda Farg'onada "Kabul tekstayl" qo'shma korxonasi ishga tushdi. Birinchi Prezident 2001-yil 16-avgustda Koreya savdo vaziri Du Yun Xvangni qabul qildi.

Respublikamizda 2001-yilga qadar mazkur mamlakatning 20ga yaqin yirik kompaniyasi faoliyat ko'rsatardi va bu ko'rsatkich 2001-yilda kelganda 100 tani, 2011 yilda esa 400 tani tashkil qilmoqda. 2005-yilning 10-12-may kunlari Koreya prezidenti No Mu Xyon mamlakatimizga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif chog'ida No Mu Xyon savdo-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi: "Bu galgi tashrifimdan ko'zlangan asosiy maqsad, 1992-yilda mamlakatlarimiz o'rtasida o'rnatilgandan beri rivojlanib kelinayotgan ikki tomonlama aloqalarga baho berish va har jihatdan kelajakka qaratilgan hamkorlikni mustahkamlashdir... Shuningdek, ikki tomonlama rivojlantirishda o'ziga xos ko'priklar vazifasini o'tovchi 200 minglik koreyslar diasporasi vakillari bilan ham, uchrashish

<sup>2</sup> V.S.Xan. Koreya tarixi. Toshkent-2011. 125-b.

<sup>3</sup> Xalq so'zi gazetasi. 1996-yil 15-fevral.



niyatidaman”<sup>4</sup> Ushbu tashrifda o‘zaro munosabatlarning 2005-yilga qadar bo‘lgan holatini tahlil etish va istiqboldagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko‘rildi. 2005-yilga qadar O‘zbekistonda Janubiy Koreyaning 28 ta yirik firma va kompaniyalarining vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatayotgani diqqatga sazovordir.

Shuningdek, 2009-yilning dekabr oyida “LG electronics” kompaniyasi tomonidan Samarqanddagi “Sino” ma’suliyati cheklangan jamiyat negizida “LG” markazi ostida muzlatgichlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari 2008-yilda “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi va “DAEWOO international” kompaniyalari o‘rtasida Ustyurt mintaqasi hududida geologiya qidiruv ishlari amalga oshirilishi kelishib olindi. 2008-yil fevral oyida “Fonon” MICHB va “Neoplant” kompaniyasi o‘rtasida “LG Philips display” konsoriumi bilan kvarts xomashyosini qidirish ishlari va undan texnik kremniy va elektron mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishuv imzolandi. Bundan tashqari, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi va “Korean air” kompaniyalari o‘rtasida Navoiy shahridagi xalqaro aeroport negizida logistika markazini barpo etish bo‘yicha hamkorlik bayonnomasi imzolandi.

2012-yilga kelib, davlatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash 2 mlrd. AQSH dollardan oshib ketdi. Aytib o‘tish joizki, Koreya Respublikasi tekstil, yengil sanoat, tog‘-metallurgiya, neft-kimyo, elektrotexnika, oziq-ovqat qurilish, energetika, farmasevtika va respublika iqtisodining boshqa sohaslarida hamda Surgil bazasidagi Ustyurt gaz-kimyo majmuasi, Navoiy erkin iqtisodiy zonasini, Angren erkin iqtisodiy zonasini rivojlantirishda faol ishtirok etdi.

Faol hamkorlik axborot texnologiya sohasida ham rivojlanmoqda. 2014-yilda Koreyaning axborot texnologiyalari bo‘yicha nufuzli Inha universitetining Toshkent filiali ochildi. Mazkur ta’lim muassasi Janubiy Koreya Inha universiteti va O‘zbekiston Respublikasi hukumati o‘rtasidagi hamkorlik samarasi bo‘lib, yuksak malakali va raqobatbardosh IT menejerlarni tayyorlash maqsadida ochilgan edi.

2017-yildan Janubiy Koreya va O‘zbekiston Respublikalari o‘rtasidagi munosabat yanada yuqoriga ko‘tarildi. 2016-yil dekabr oyida prezident etib saylangan Shavkat Mirziyoyev Miromonovich bu munosabatning sababchisi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 22 – 25-noyabr kunlari Koreya Respublikasiga tashrif buyurdi. Bu tashrif davomida Koreya O‘zbekiston diplomatik munosabatlari o‘rnatilganligining 25-yilligi ham

<sup>4</sup> Xalq so‘zi gazetasi. 2005-yil 10-may



munosib nishonlandi. Ushbu davlat tashrifi natijalari bo'yicha Strategik hamkorlikni har tomonlama kengaytirish to'g'risida qo'shma bayonot qabul qilindi, davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajadagi 20 dan ziyod kelishuvlar hamda qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan savdo-iqtisodiy, moliyaviy-texnikaviy va boshqa sohalarda jami 64 ta hujjatlar imzolandi. Ulardan 4 milliard dollari to'g'ridan-to'g'ri koreys investitsiyalari hisoblanadi.

2017-yil 22-25-noyabr kunlaridagi tashrif ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamladi deya to'liq aytishimiz mumkin. Chunki, Koreya SH.M. Mirziyoyev tashrif davomida aytgan: "Koreyada ishlash maqsadida kelgan o'zbeklarning Koreyada tug'ilgan farzandlari koreys tilida a'lo darajada gapirayapti."<sup>5</sup>degan gaplari munosabatlar yaxshi ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, dastlabki uchrashuvdanoq SH.M. Mirziyoyev: "Koreya va O'zbekiston davlatlarini aka-uka davlatlar" sifatida ta'kidlashi munosabatlarini yaxshilashdan dalolat beradi.

Ikki davlat o'rtasida parlamentlararo almashinuv ham muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. 1995-yilda Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasida "Koreya-O'zbekiston" do'stlik Assotsiatsiyasi tuzildi. 2005-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Koreya bilan hamkorlik bo'yicha maxsus guruh ta'sis etildi. 2017-yilning sentabrida Koreya Respublikasining Milliy Assambleyasi Spikeri Chon Se Gyunning O'zbekistonga, 2018-yilning fevralida esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri N.Ismoilovning Koreya Respublikasiga tashriflari amalga oshirildi.

1992-yildan beri Toshkentda Koreya ta'lim markazi faoliyat olib bormoqda va tanlov asosida Koreyada til o'rganish bo'yicha amaliyotlar, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari uchun malaka oshirish kurslarini o'tkazib kelmoqda. O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti va Samarqand Davlat jahon tillari institutida koreys tili va madaniyati hamda kompyuter markazlari ish olib bormoqda. Respublika bo'yicha jami 13 oliy o'quv yurtida, 28 maktab, litsey va kollejlarda koreys tili o'rgatiladi<sup>6</sup>.

1999-yildan "O'zbekiston-Koreya" do'stlik jamiyati ish olib bormoqda. Ushbu jamiyat faoliyati natijasida Koreya va O'zbekiston o'rtasida bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, O'zbekistonda yashaydigan koreys diaporasini qo'llab-quvvatlanishini aytishimiz mumkin.

<sup>5</sup> <http://kor.theasian.asia/archives/199418>

<sup>6</sup> <https://mfa.uz/uz/cooperation/countries/199/>

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi almanishuvni faollashtirish, qo'shma ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar va tadqiqotlar o'tkazish maqsadida O'zbekiston oliy o'quv yurtlari Janubiy Koreyaning 30 dan ortiq universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bunga misol tariqasida olib qaraydigan bo'lgan, O'zR FA akademiyasi va Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bolib o'tgan ilmiy ma'ruza va seminarlarni olib qarashimiz mumkin. Aytib o'tish joizki, Janubiy Koreyaning Seul universitetida tarkibida 2009-yildan beri faoliyat ko'rsatayotgan Yevroosiyo va O'rta Osiyo tadqiqotlari markazida<sup>7</sup> mustaqillikdan keyingi O'rta Osiyo mamlakatlari tarixi va madaniyatini faol tarzda o'rganishi natijasida O'zbekiston Respublikasi tarixi va madaniyatiga qiziqish ortganini kuzatishimiz mumkin.

Faol hamkorlik sport sohasida ham amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda WTF (jahon taekvando federatsiyasi) faoliyat yurimoqda. Bilamizki, taekvondo Koreya Respublikasining milliy sport turi hisoblanadi. Bu sport turiga O'zbekistonda qiziqish ortib borishi ikki davlat o'rtasida munosabatlarning bardavom bo'lishiga ko'makchi hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Koreya Respublikasi va O'zbekiston Respublikalari o'rtasida o'rnatilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar tarixan uncha uzoq bo'lmagan bo'lsa-da, bu ikki davlat munosabatlari ijobiy ekanligini aytishimiz mumkin. Aytish lozimki, hozirgi kunda Janubiy Koreyalik investorlar O'zbekistondagi iqtisodiy tizimni o'rganib, iqtisodiy jihatlarni yaxshilashga yordam berish uchun ko'plab investitsiyalar kiritmoqdalar. Hozirda Koreya Respublikasining O'zbekistonda amalga oshirayotgan eng keng loyihalaridan biri bu Mo'ynoqda olib borilayotgan neft-gaz korxonasining qurilishidir. Kelajakda ushbu davlatlar o'rtasida barcha sohalarda hamkorlik bardavom bo'ladi deb to'laqonli aytishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati:**

1. Li Dji Yun. Koreya va O'zbekistonning iqtisodiy hamkorlik shartnomasi.//Jamiyat va boshqaruv, 2009. №1.
2. V.S.Xan. Koreya tarixi.Toshkent-2011.
3. Xalq so'zi gazetasi. 1996-yil 15-fevral.
4. Xalq so'zi gazetasi. 2005-yil 10-may
5. <http://kor.theasian.asia/archives/199418>

<sup>7</sup> <http://snu.ac.kr/eng/index.php/research/regional-research/center-for-eurasian-and-central-asian-studies/>



6. <https://mfa.uz/uz/cooperation/countries/199/>

7. <http://snuac.snu.ac.kr/eng/index.php/research/regional-research/center-for-eurasian-and-central-asian-studies/>



**WOC**  
**WORLD**  
**ONLINE**  
**CONFERENCES**

